



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'RGANISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Mirzohidova Yodgora

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Zahro Islomova

Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish strategiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rnini, o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, mustaqil o'rganish, ta'lim samaradorligi, raqamli savodxonlik, axborot texnologiyalari, interaktiv ta'lim, innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni, o'quvchi faolligi, zamonaviy ta'lim

Annotation: This thesis highlights theoretical and practical aspects of forming students' independent learning strategies through digital technologies. The role of modern information and communication tools in improving educational effectiveness, developing students' digital literacy, and forming independent thinking skills is analyzed.

Keywords: Digital technologies, independent learning, educational effectiveness, digital literacy, information technologies, interactive learning, innovative methods, educational process, student activity, modern education. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini interaktiv, mazmunan boy va qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarga individual o'rganish uslubini tanlash imkoniyatini yaratish hamda ularning raqamli savodxonligini rivojlantirish mumkin. Inklyuziv ta'lim esa barcha yoshlar, jumladan, nogironligi bo'lgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun teng ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan ta'lim modeli hisoblanadi. Mazkur yondashuv yoshlarning jamiyatda faol, teng huquqli shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Axborot olish madaniyati esa shaxsning turli axborot manbalarini izlab topish,



ularni tahlil qilish, saralash, tizimlashtirish hamda samarali foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu jihat ayniqsa yoshlar uchun muhim hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda ular zamonaviy texnologiyalar orqali keng ko'lamdagi axborot resurslariga ega bo'lib, ushbu ma'lumotlardan maqsadli va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishlari zarur. O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi o'rni hamda axborot olish madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati keng o'rganilgan. Jumladan, Sh. Abdurahmonov "Ta'limda axborot texnologiyalarining roli" nomli asarida ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Olim zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim olish jarayonida raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb masala ekanini qayd etadi [1, 23-bet].

N. Ismoilov o'z ilmiy tadqiqotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni muhim ekanini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada inklyuziv va qulay tashkil etish imkoniyati kengayadi [2, 45-bet].

Sh. S. Aliyev ham zamonaviy ta'lim texnologiyalarining inklyuziv ta'limdagi ahamiyatini o'rgangan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inklyuziv ta'limni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, AKT yordamida nogironligi bo'lgan yoki alohida ehtiyojga ega o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim shakllarini yaratish orqali teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash mumkin [3, 78-bet].

R. X. A'zamov esa axborot olish madaniyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim yoshlar o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, u ta'lim jarayonida o'quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirishda pedagoglarning muhim o'rni va rolini ilmiy asosda tahlil etadi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda ijtimoiy sohalarda, ayniqsa davlat boshqaruvi, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatning raqamli infratuzilmasini mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, dasturiy mahsulotlar hamda axborot texnologiyalarining ichki bozorini kengaytirish, hududlarda IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga qaratilgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihalar raqamli



iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi natijasida ta'lim muhiti ham sezilarli darajada yangilanmoqda. Onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellekt, virtual hamda orttirilgan haqiqat kabi innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, bilim berish usullari va o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kirmoqda. Ushbu texnologiyalar ta'lim tizimini transformatsiya qilish bilan birga, uning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi, avvalo, onlayn o'quv platformalarining rivojlanishida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda onlayn platformalar zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanib, o'quvchilarga turli yo'nalishlar bo'yicha keng qamrovli kurslarni tanlash, mahalliy va xalqaro miqyosdagi ta'lim resurslaridan foydalanish hamda masofadan turib bilim olish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa ta'lim olish jarayonining moslashuvchanligini oshirib, sifatli ta'limni yanada ommalashtirishga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari ham ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan tizimlar ta'lim jarayonini individuallashtirish, ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos ta'lim yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarga o'z sur'atida o'rganish, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Virtual va orttirilgan haqiqat texnologiyalari ham ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. Mazkur texnologiyalar interaktiv o'quv muhitini yaratish orqali murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Ayniqsa, tibbiyot, muhandislik, tarix kabi fanlarni o'qitishda virtual va orttirilgan haqiqat vositalari amaliy tajriba asosida bilim olish imkonini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'rganish jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, raqamli vositalar yordamida shaxsiylashtirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyati kengaymoqda. Bunda o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslublari hisobga olinadi. Natijada, ta'lim samaradorligi oshib, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar hamkorlikda o'rganish jarayonini ham rivojlantirmoqda. Onlayn muhokama platformalari, raqamli ish maydonlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish, guruh bo'lib ishlash hamda loyiha asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy ishlash malakasini shakllantirish hamda ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shuni aytish lozim, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev —Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi, degan fikrlari asnosida biz o'qituvchilar o'z ustimizda ishlashimiz lozim. Yosh avlodning tarbiyasida asosiy bosh bo'g'in bo'lishimizni



hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak. Mamlakat kelajagi, uning go'zal istiqboli salohiyatli yoshlarning ilg'or va innovatsion g'oyalari asosida yuksaladi. Bunaqangi taraqqiy topgan davlat barpo etish uchun esa, bugungi kun juda ham mas'uliyatli va shijoatli pedagog xodimlarimiz-dan intiluvchan, bilimga chanqoq o'quvchilarni voyaga yetkazishimizni talab qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon uchun yosh avlodni munosib ravishda tayyorlab borish, tarbiyalash, zamonaviylik tushunchasi bilan, insoniylik xususiyatlarini chambarchaslikda ular ongiga singdira olish ota-ona bilan bilan teng qatorda o'qituvchilardan ham ko'p mehnat talab qiladi. Izlanish, intilish va xohish bo'lsagina bu kabi vaziyatlar ijobiy tus oladi. Bugungi kunga kelib o'qituvchi pedagoglarga yana jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida qarala boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida // Xalq so'zi gazetasi. – 2017-yil 13-yanvar.
2. Ibragimov S., Temirbekov S. Avtomatlashtirilgan tizimlarda kiberxavfsizlik masalalari // Tadqiq va tadbiq ilmiy-uslubiy jurnal. – FerTech jurnali, 2024.
3. Mansurov A. Raqamli ta'lim tizimlari va ularning xavfsizligi. – Toshkent: Informatika va axborot texnologiyalari instituti ilmiy nashri, 2020.
4. Naimov A. Kiberxavfsizlik va huquqiy masalalar. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2021.
5. Toshpulatov M. Axborot tizimlarida xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2022.